**“1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI” aksiyadorlik jamiyati нинг акциялар чиқарилиши давлат рўйҳатидан ўтказилганлиги тўғрисида ХАБАР!**

**“1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI ” AJ, Жамиятнинг саккизинчи акциялар чиқарилиши Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги томонидан давлат рўйҳатига олинганлиги тўғрисида ҳабар қилади.**
Акциялар чиқарилиши давлат рўйҳатидан ўтказилган санаси ва рақами – **2023 йил 20 ноябрь, №L0179-8**
Идиентификация рақами – **RU108L0179T8**
Акциялар чиқариш тўғрисидаги қарор ва рисола билан танишиб чиқиш жойи ва тартиби – **Жамият эмиссия рисоласининг ва қимматли қоғозлар чиқарилиши тўғрисидаги қарорининг асли ва нусхаси билан Ўзбекистон Республикаси, Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Салар шахарчаси, Файзобод м.ф.й., Зиёкорлар-1 кўчаси, 212-уй манзили бўйича жойлашган “1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI ” AJ Бош офисида танишиш мумкин: Потенциал инвесторлар эмиссия рисоласини кўриб чиқиш учун жамият Ижроия органига мурожаат қилишлари мумкин.**

**“1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI” aksiyadorlik jamiyati**
**Э М И С С И Я   Р И С О Л А С И**

## 1. ЖАМИЯТ ТЎҒРИСИДАГИ АСОСИЙ МАЪЛУМОТЛАР

**1.1.** Жамиятнинг тўлиқ ва қисқартирилган номи:
- Жамиятнинг тўлиқ номи – **“1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI” aksiyadorlik jamiyati;**
- Жамиятнинг қисқартирилган номи – **“1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI ” AJ**

**1.2.** Жамият рўйхатдан ўтказилган сана ва рўйхат рақами – **1995 йил 13 июнда, №837-сон билан.**
**1.3.** Жамиятнинг Банк реквизитлари - **«InfinBank» АЖ Тошкент вилояти филиали, Ҳисоб рақами: 2021 0000 9001 2495 9001 МФО: 01056.**
**1.4.** Жамият раҳбарининг фамилияси, исми, шарифи – **Машарипов Хуснидди Ботирович**
**1.5.** Жамият бош бухгалтерининг фамилияси, исми, шарифи – **Шеина Светлана Барисовна.**
**1.6.** Жамиятнинг ташкилий – ҳуқуқий шакли – **Акциядорлик жамияти.**
**1.7.** Жойлашган жойи – **Ўзбекистон Республикаси, Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Салар шахарчаси, Файзобод м.ф.й., Зиёкорлар-1 кўчаси, 212-уй, 111214.**
**1.8.** Жамият солиқ органининг номи ва СТИР – **Тошкент шаҳар давлат солиқ инспекцияси, СТИР: 200607109.**
**1.9.** Давлат статистика органи томонидан берилган кодлар:
Корхонанинг хос рақами (ОКПО) – **14832514;**
ХХТУТ бўйича асосий фаолият тури (ОКЭД) – **23610;**
МШТ бўйича мулкчилик шакли (ОПФ) – **153;**
Манзили бўйича МХОБТ тўлиқ хос рақами (СОАТО) – **1727248556;**
ТХШ бўйича ташкилий – хуқуқий шакли (ОПФ) – **153.**
**1.10.** Асосий фаолият йўналиши ва ишлаб чиқариш (хизмат) турлари – **Темир бетон махсулотлари ва металлоконструкциялар ишлаб чиқариш.**
**1.11.** Жамиятда мустақил рейтинг баҳосининг мавжудлиги. Уларнинг қисқача тавсифи келтирилсин: **Жамиятда рейтинглар мавжуд эмас.**

## 2. ЧИҚАРИЛАЁТГАН АКЦИЯЛАР ЧИҚАРИЛИШИНИ МУОМАЛАГА КИРИТИШ ШАРТЛАРИ

**2.1.** Келгуси акциялар чиқарилишини муомалага киритиш шартлари:
а) чиқарилишдаги акциялар тури – **эгасининг номи ёзилган оддий акциялар.**
б) чиқарилишдаги акциялар сони – **3 000 000 (уч миллион) дона.**
в) чиқарилишдаги акцияларнинг номинал қиймати, сўм – **1 491 (бир минг тўрт юз тўқсон бир) сўм;**
г) чиқарилишнинг умумий ҳажми (номинал қиймати бўйича), сўм**– 4 473 000 000 (тўрт миллиард тўрт юз етмиш уч миллион) сўм.**
д) чиқарилишдаги ҳар бир акция билан тақдим этиладиган ҳуқуқлар – **Жамиятнинг оддий акциялари эгаси қуйидаги ҳуқуқларга эга:**
- **Жамиятнинг акциядорлари реестрига киритилиш;**
- **ўзига таллуқли депо ҳисобварағидан кўчирма олиш;**
- **Жамият фойдасининг бир қисмини дивидендлар тарзида олиш;**
- **Жамият тугатилган тақдирда ўзларига тегишли улушга мувофиқ мол – мулкнинг бир қисмини олиш;**
- **акциядорларнинг умумий йиғилишларида овоз бериш орқали Жамиятни бошқаришда иштирок этиш;**
- **Жамият молия – хўжалик фаолияти натижалари тўғрисида тўлиқ ва ишончли ахборотни белгиланган тартибда олиш;**
- **олган дивидендини эркин тасарруф этиш;**
- **қимматли қоғозлар бозорини тартибга солиш бўйича ваколатли давлат органида, шунингдек судда ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;**
- **ўзига етказилган зарарнинг ўрни қопланишини белгиланган тартибда талаб қилиш;**
- **ўз манфаатларини ифодалаш ва ҳимоя қилиш мақсадида уюшмалар ва бошқа нодавлат нотижорат ташкилотларига бирлашиш;**
- **қимматли қоғозларни олишда зарар кўриш, шу жумладан бой берилган фойда эҳтимоли билан боғлиқ таваккалчиликларни суғурта қилиш;**
- **Жамиятнинг акциядорлари ўзга акциядорларнинг розилигисиз ўзига тегишли акцияларни учинчи шахсларга бегоналаштириш билан боғлиқ битимларни амалга ошириш ҳуқуқига эга;**
- **Жамиятнинг акциядорлари Жамият акциялари берадиган ҳуқуқларни (ҳуқуқларнинг бир қисмини) қонунчиликда белгиланган тартибда ишончнома асосида ўз вакилига (вакилларига) бериш ҳуқуқига эга;**
- **Акциядорлар Жамият Уставида ва қонунчиликда назарда тутилган бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўладилар.**

е) акцияни жойлаштириш усули, шунингдек, ёпиқ обуна бўлган тақдирда ушбу чиқарилишдаги қимматли қоғозлар жойлаштирилиши амалга ошириладиган шахслар доираси кўрсатилади **– Ушбу чиқарилишдаги акциялар акциядорларга имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи тақдим қилган холда очиқ обуна орқали жойлаштирилади.**
ж) акцияни жойлаштиришнинг муддати ва тартиби – **Чиқарилаётган акциялар ваколатли давлат органи томонидан давлат рўйхатига олинган кундан бошлаб 365 (уч юз олтмиш беш) кун муддатда жойлаштирилади.**
Акцияларни жойлаштиришни бошлаш санаси **– Акциялар чиқарилуви давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги хабар ва имтиёзли ҳуқуқнинг амал қилиш муддати билдиришномаси қонун хужжатларида ўрнатилган тартиб ва муддатларда оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган кундан эътиборан 15 (ўн бешинчи) кун. Агар акцияларни жойлаштиришни бошлаш санаси дам олиш кунига тўғри келса, унда акцияларни жойлаштириш кейинги биринчи иш кунида бошланади.**
Акцияларни жойлаштиришни тугатиш санаси **– Мазкур чиқарилишнинг сўнгги акцияси жойлаштирилган кун. Бироқ акцияларни жойлаштиришни тугатиш санаси, мазкур чиқарилиш ваколатли давлат органи томонидан давлат рўйхатига олинган кундан бошлаб 365 кундан ошмаслиги лозим.**
Акцияларни жойлаштиришнинг тартиби – **Қўшимча чиқарилаётган акциялар Жамият томонидан мустақил равишда андеррайтерлар жалб қилинмасдан жойлаштирилади. Қўшимча чиқарилаётган акцияларни сотиб олишда “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг хуқуқларини химоя қилиш тўғрисида”ги қонуннинг 35-36-моддаларига хамда Жамият Уставининг 6.1.-бандига асосан Жамият акциядорларига имтиёзли сотиб олиш хуқуқи тақдим этилади. Акцияларни имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи, имтиёзли ҳуқуқ тўғрисидаги**

**билдиришнома оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган пайтдан бошлаб 14 (ўн тўрт) кун давомида амал қилади. Акциялар имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи орқали жойлаштирилганда акциядорлар билан ташкиллаштирилмаган (уюшмаган) қимматли қоғозлар бозорида тўғридан тўғри фуқаролик-ҳуқуқий битим тузиш йўли билан жойлаштирилади ва хизмат кўрсатувчи инвестиция воситачиси томонидан рўйхатга олинади.**

**Акцияларни имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқининг амал қилиш муддати тугаганидан сўнг, жойлаштирилмаган акциялар очиқ обуна орқали чекланмаган инвесторлар орасида "Тошкент" Республика фонд биржаси (Тошкент РФБ) савдо майдончаларида (листинг) жойлаштирилади. Тошкент РФБда акцияларни жойлаштириш бўйича битимлар, ушбу биржанинг савдо қоидаларига мувофиқ амалга оширилади.**

з) ушбу чиқарилишдаги акциялар баҳоси (баҳолари) ёки жойлаштириш баҳосини белгилаш тартиби – **Ушбу чиқарилишдаги акциялар инвесторларга, шунингдек имтиёзли ҳуқуқга эга шахсларга ҳам, жамият кузатув кенгаши қарори билан белгиланадиган бозор баҳосида, лекин номинал нархидан паст бўлмаган нархда жойлаштирилади.**

и) акцияларни тўлаш шартлари ва тартиби, шу жумладан ҳисоб-китобларнинг шакли, акциялар тўланишига келиб тушадиган пул воситалари кўчирилиши лозим бўлган банк ҳисобварақлари – **Акциялар учун тўловлар Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасида амалга оширилади. Акцияларни жойлаштириш жараёнида акциялар учун тўловлар фақат пул маблағлари билан амалга оширилади.**

**Акциялар учун тўловлар пул ўтказиш йўли билан нақдсиз шаклда, жисмоний шахслар пластик карталар орқали хам амалга оширилади.**

**Акциялар учун пул тўловлари "1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI" АЖнинг қуйидаги банк хисоб рақамига қабул қилинади: х/р 2021 0000 6001 2495 9005; "InFinBank" АЖ Тошкент вилояти филиали; Банк коди: 01056.**

**Жамият акциялари учун тўловлар акцияларни жойлаштириш муддати ичида амалга оширилиши керак.**

**«Тошкент» РФБ орқали амалга ошириладиган олди – сотди битимлари бўйича ҳисоб – китоб қилиш тартиби ва муддатлари ушбу биржанинг савдо қоидаларига мувофиқ амалга оширилади. Тўловлар нақдсиз шаклида, ўрнатилган тартибда лицензияга эга инвестиция воситалари орқали «Тошкент» РФБ махсус депозит рақамига пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.**

к) акциялар чиқарилиши тўғрисидаги қарорни қабул қилган жамият органи ва санаси – **"1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI" АЖ Кузатув кенгашининг 2023 йил 10 октябрдаги қарори асосида.**

л) жамият уставида акциялар эмиссиясига ўрнатилган ҳар қандай чеклашлар, жойлаштирилаётган акцияларни сотиб олиши мумкин бўлганларга нисбатан чеклашлар: **Жамият Уставининг 6.1. бандига кўра акциядорлар имтиёзли хуқуқга эга. Акциялар чиқарилиши тўғрисидаги қарорга кўра, Жамиятнинг овоз берувчи акциялари эгаси бўлмиш акциядорлар чиқарилаётган акцияларни ўзлари эга бўлган овоз берувчи акциялар сонига мутаносиб миқдорда имтиёзли сотиб олишга ҳақлидирлар.**

м) инвестор томонидан сотиб олинган акциялар бўйича олинган даромадни солиққа тортиш – **Инвестор томонидани сотиб олинадиган акциялар бўйича олинадиган даромадни солиққа тортиш Ўзбекистон Республикасининг амалдаги солиқ қонунчилигига асосан амалга оширилади.**

акцияларни чиқаришдан мақсад **– Жамиятни ривожлантириш, ускуналарини янгилаш ва оборот маблағларини ошириш бўйича ишларни амалга ошириш учун инвестиция маблағларини жалб қилиш.**

**2.2.** Қимматли қоғозларга тўлов пул бўлмаган воситалар билан тўланган тақдирда қимматли қоғозлар тўланиши мумкин бўлган мол-мулкнинг рўйхати кўрсатилсин – **Акциялар учун тўловлар Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасида амалга оширилади. Акцияларни жойлаштириш жараёнида акциялар учун тўловлар фақат пул маблағлари билан амалга оширилади. Акциялар учун тўловлар пул бўлмаган воситалар билан амалга оширилиши кўзда тутилмаган.**

**2.3.** Ушбу чиқарилиш амалга ошмаган деб топилганда қимматли қоғозлар чиқарилишининг улуши (бундай улуш ушбу чиқарилишдаги қимматли қоғозлар умумий сонининг 60 фоизидан кам миқдорда белгиланиши мумкин эмас) – **Ушбу чиқарилишидаги акциялар, уларни жойлаштириш муддати ичида, умуман (бир донаси хам) жойлаштирилмаган тақдирда акциялар чиқарилиши амалга ошмаган деб ҳисобланади.**

**2.4.** Қимматли қоғозлар чиқарилиши амалга ошмаган деб топилган тақдирда жамият томонидан қимматли қоғозлар тўлови сифатида олинган воситаларни қайтариш тартиби – **Акциялар чиқарилиши амалга ошмаган деб тан олинган тақдирда акциялар учун тўланган маблағларнинг қайтарилиши қуйидагича амалга оширилади:**

**"1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI" АЖ томонидан ушбу ҳолат тўғрисида ўрнатилган тартибда расмий маълумот (Қимматли қоғозлар чиқарилишини амалга ошмаган деб топиш муҳим факти – 28) "1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI" АЖ расмий вэб - сайтида (www.jbi1.uz), «ТОШКЕНТ» Республика фонд биржаси расмий вэб - сайтида (www.uzse.uz) ва Корпоратив ахборот ягона порталида (www.openinfo.uz) ва оммавий ахборот воситаларида ошкор этилади.**

**Акциялар чиқарилуви амалга ошмаган деб топилган санадан сўнг 5 (беш) иш куни давомида акциялар учун тўланган маблағлар Жамият томонидан акциядорланинг аризаларида кўрсатилган банк хисоб рақамларига ўтказиб бериш орқали қайтарилади.**

**2.5.** Қимматли қоғозлар чиқарилиши тўғрисидаги қарор ва қимматли қоғозлар эмиссия рисоласининг асл нусхаси ва нусхалари билан танишиш тартиби ва жойи тўғрисидаги ахборот.

**Қимматли қоғозлар чиқарилиши тўғрисидаги ахборотнинг ошкор қилиниши Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги Қонуни ва бошқа қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилади.**

**Акциялар чиқарилиши давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги хабар ва қонунчилик билан белгиланган бошқа маълумотлар, акциялар чиқарилиши давлат рўйхатидан ўтказилганлигидан сўнг қонун хужжатлари билан ўрнатилган муддатда оммавий ахборот воситаларида чоп этилади.**

**Эмитентнинг акциялари эмиссия рисоласининг асл нусхаси ва нусхалари билан "1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI" АЖга ариза асосида қуйидаги манзил орқали Ўзбекистон Республикаси, Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Салар шахарчаси, Файзобод м.ф.й., Зиёкорлар-1 кўчаси, 212-уй, тел.: (55) 506-55-09, ва веб-сайти (jbi1.uz) орқали танишиш мумкин.**